



ECONOMIC FREEDOM OF CITIZENS AND ITS ROLE IN SOCIETAL DEVELOPMENT

Rakhmatjon Akhmedov

Lecturer, Department of “Specialty, Social-Humanitarian and Exact Sciences”

Tortkol Faculty, Tashkent State University of Economics

Email: axmedovraxmatjon826@gmail.com

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: economic freedom; property rights; entrepreneurship; market economy; social justice; sustainable development; Uzbekistan; legal regulation.

Received: 02.12.25

Accepted: 03.12.25

Published: 03.12.25

Abstract: This article examines the concept of citizens' economic freedom, its essence, forms, and its significance for the stable and sustainable development of society. Economic freedom is defined as the individual's right to own property, engage in labor activities, pursue entrepreneurship, and make independent decisions within market relations. The article analyzes the principles that ensure economic freedom as reflected in the Constitution of the Republic of Uzbekistan, relevant legislative acts, and key political documents such as the “Development Strategy for 2022–2026.” It also reviews Uzbekistan's achievements in the sphere of economic freedom according to international rankings. Furthermore, the study highlights the role of economic freedom in promoting entrepreneurship, fostering competitive market conditions, ensuring social justice, and supporting long-term economic growth. The findings demonstrate that expanding the economic freedom of citizens is a fundamental precondition not only for building a robust economy but also for developing a democratic and lawful society.

FUQARONING IQTISODIY ERKINLIGI VA JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI O‘RNI

Raxmatjon Axmedov

TDIU To‘rtko‘l fakulteti

“Mutaxassislik, ijtimoiy-gumanitar va aniq fanlar” kafedrası o‘qituvchisi

Email: axmedovraxmatjon826@gmail.com

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: iqtisodiy erkinlik, jamiyat taraqqiyoti, tadbirkorlik, mulk huquqi, bozor iqtisodiyoti, O'zbekiston, huquqiy tartib.

Annotatsiya: Ushbu maqolada fuqaroning iqtisodiy erkinligi tushunchasi, uning mohiyati, shakllari hamda jamiyatning barqaror va barqaror taraqqiyotidagi ahamiyati tahlil qilinadi. Iqtisodiy erkinlik – shaxsning mulkka ega bo'lish, mehnat qilish, tadbirkorlik bilan shug'ullanish, bozor munosabatlarida erkin qaror qabul qilish kabi huquqlariga ega bo'lishi sifatida tushuniladi. Maqolada O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonun hujjatlari hamda “2022–2026 yillar uchun belgillangan Taraqqiyot strategiyasi” kabi siyosiy hujjatlardagi iqtisodiy erkinlikni ta'minlovchi tamoyillar hamda xalqaro reytinglarda mamlakatning iqtisodiy erkinlik sohasidagi yutuqlari ham ko'rib chiqiladi. Shuningdek, iqtisodiy erkinlikning tadbirkorlikni rag'batlantirish, raqobat muhitini shakllantirish, ijtimoiy adolatni ta'minlash va barqaror iqtisodiy o'sishga xizmat qilish orqali jamiyat rivojlanishidagi o'rni alohida ta'kidlanadi. Tadqiqot natijasida fuqarolarning iqtisodiy erkinligini kengaytirish – nafaqat iqtisodiyot, balki demokratik huquqiy jamiyat qurishning ham asosiy sharti ekanligi ko'rsatiladi.

ЭКОНОМИЧЕСКАЯ СВОБОДА ГРАЖДАН И ЕЁ РОЛЬ В РАЗВИТИИ ОБЩЕСТВА

Рахматжон Ахмедов

Преподаватель кафедры «Специальность, социально-гуманитарные и точные науки»

Турткульский факультет Ташкентского государственного экономического университета

Email: axmedovraxmatjon826@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: экономическая свобода; развитие общества; предпринимательство; право собственности; рыночная экономика; социальная справедливость; устойчивый рост; Узбекистан; правовое регулирование.

Аннотация: В статье рассматривается понятие экономической свободы граждан, раскрываются её сущность, формы, а также значение для стабильного и устойчивого развития общества. Экономическая свобода трактуется как право личности владеть имуществом, трудиться, заниматься предпринимательской деятельностью и принимать самостоятельные решения в условиях рыночных отношений.

Анализируются конституционные принципы, обеспечивающие экономическую свободу в Республике Узбекистан, нормы действующего законодательства, а также политические документы, включая «Стратегию развития на 2022–2026 годы». Особое внимание уделено достижениям Узбекистана в области экономической свободы по международным рейтингам. В статье подчёркивается роль экономической свободы в стимулировании предпринимательства, формировании конкурентной среды, обеспечении социальной справедливости и содействии долгосрочному экономическому росту. Результаты исследования показывают, что расширение экономической свободы граждан является ключевым условием не только для построения эффективной экономики, но и для формирования демократического правового общества.

Kirish. Zamonaviy jamiyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biri – fuqarolarning iqtisodiy erkinligidir. Iqtisodiy erkinlik jamiyatda inson farovonligi, tadbirkorlik muhiti, raqobat, ijtimoiy barqarorlik va demokratik qadriyatlarning shakllanishiga bevosita ta'sir qiladi. Shaxsning iqtisodiy jihatdan o'zini erkin his qilishi, mulkka egalik qilish, mehnat qilish, tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish va bozor munosabatlarida mustaqil qaror qabul qila olishi jamiyat taraqqiyotining muhim mezonlaridan sanaladi. Shu bois, iqtisodiy erkinlik tushunchasi bugungi globallashuv sharoitida nafaqat iqtisodchi olimlar, balki huquqshunoslar, sotsiologlar va siyosatshunoslarning ham diqqat markazida turibdi.

Sharq mutafakkirlarining iqtisodiy munosabatlarga oid qarashlari ham iqtisodiy erkinlikning qadimiy ildizlarga ega ekanligini ko'rsatadi. Masalan, Abu Nasr Forobiy "Fozil odamlar shahri" asarida iqtisodiy faoliyatning mohiyati inson kamoloti va jamiyat ehtiyojlarini qondirishga xizmat qilishi lozimligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, mulk va boylikning maqsadi inson va jamiyatning ma'naviy hamda ijtimoiy rivojlanishiga yordam berishi kerak. Demak, iqtisodiy erkinlik faqat iqtisodiy manfaat emas, balki axloqiy va ijtimoiy mas'uliyat bilan bog'liq jarayon sanaladi.

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy erkinlik konstitutsiyaviy darajada mustahkamlab qo'yilgan. Konstitutsiyada shaxsning mulkdor bo'lishi, munosib mehnat sharoitida ishlashi, tadbirkorlik bilan shug'ullanishi va iqtisodiy faoliyatda kamsitilmasligi kabi normalar belgilangan. "2022–2026 yillar uchun Taraqqiyot strategiyasi"da esa tadbirkorlikni qo'llab-

quvvatlash, bozor mexanizmlarini liberallashtirish, mulk daxlsizligini ta'minlash va iqtisodiy faollikni oshirish ustuvor vazifa sifatida qayd etilgan. Bu esa iqtisodiy erkinlikning davlat siyosati darajasida muhim ahamiyat kasb etayotganidan dalolat beradi.

Xalqaro miqyosda ham O'zbekiston iqtisodiy erkinlik bo'yicha ijobiy natijalarga erishmoqda. Fraser Institute tomonidan e'lon qilinadigan "Economic Freedom of the World" hisobotlarida O'zbekiston so'nggi yillarda reytingini sezilarli darajada yaxshiladi. Soliq tizimining soddalashtirilishi, tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash, investitsion muhitning yaxshilanishi hamda sud-huquq sohasidagi islohotlar buning asosiy omillaridan biridir.

Iqtisodiy erkinlikning jamiyat rivojlanishidagi o'rni ko'p qirrali bo'lib, u tadbirkorlik tashabbuslarini rag'batlantiradi, raqobat muhitini shakllantiradi, iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, ijtimoiy adolatni ta'minlaydi va barqaror iqtisodiy o'sishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, iqtisodiy erkinlikning me'yoriy tartibga solinishi ham muhim, chunki mehnat huquqi, atrof-muhitni muhofaza qilish, monopoliyaga qarshi kurash kabi yo'nalishlarda davlat aralashuvi iqtisodiy barqarorlikning ajralmas qismidir.

Yuqoridagi omillar iqtisodiy erkinlikning nafaqat iqtisodiy tizim, balki keng ma'nodagi demokratik jamiyat qurilishidagi o'rnini belgilab beradi. Fuqarolarning iqtisodiy erkinligini kengaytirish – kuchli iqtisodiyot, adolatli jamiyat va mustahkam huquqiy davlatning eng muhim poydevoridir.

Adabiyotlar sharhi. Fuqaroning iqtisodiy erkinligi masalasi iqtisodiyot nazariyasi, siyosiy iqtisod, huquqshunoslik va sotsiologiya fanlarida keng o'rganilgan mavzulardan biridir. Adabiyotlarda iqtisodiy erkinlik tushunchasining mohiyati, uni shakllantiruvchi omillar, davlatning tartibga solishdagi roli hamda iqtisodiy erkinlikning jamiyat taraqqiyotiga ta'siri bo'yicha turli yondashuvlar mavjud.

Xalqaro ilmiy adabiyotlarda iqtisodiy erkinlikning nazariy asoslari eng avvalo klassik iqtisodchilar – A. Smit, D. Rikardo va J. Mill asarlarida shakllangan bo'lib, ular bozor mexanizmining erkin ishlashi, xususiy mulk daxlsizligi va tadbirkorlik tashabbusining iqtisodiy o'sishdagi rolini asoslab berganlar. A. Smitning "Xalqlar boyligi" asarida iqtisodiy erkinlik bozorning tabiiy tartibotiga asos bo'lishi, shaxsiy manfaatlar uyg'unligi esa jamiyat farovonligini oshirishi qayd etiladi. Zamonaviy tadqiqotchilar – Fridrix Hayek va Milton Fridman esa iqtisodiy erkinlikni shaxsiy ozodlikning ajralmas qismi deb baholab, davlatning iqtisodiy jarayonlarga ortiqcha aralashuvi erkinlikni cheklashini ta'kidlaydilar.

Sharq mutafakkirlari – Abu Nasr Forobiy, Ibn Xaldun va boshqa ko'plab sharq mutafakkirlari asarlarida ham iqtisodiy erkinlik, mehnat, mulk va adolat masalalari alohida o'rin

tutadi. Forobiy iqtisodiy faoliyatning maqsadi inson kamoloti va jamiyat ehtiyojlarini qondirish ekanini ta’kidlab, moliyaviy erkinlikni axloqiy tamoyillar bilan uyg’unlashtirish zarurligini qayd etadi. Ibn Xaldun esa iqtisodiy erkinlik, mehnat unumdorligi va davlatning adolatli siyosati uyg’unlashganda jamiyat taraqqiyoti barqaror bo’lishini ta’kidlaydi.

Zamonaviy iqtisodiy adabiyotlarda iqtisodiy erkinlik ko’pincha xalqaro indekslar orqali baholanadi. Fraser Institute tomonidan har yili e’lon qilinadigan “Economic Freedom of the World” hisobotlarida iqtisodiy erkinlik besh asosiy ko’rsatkich asosida o’rganiladi – davlatning iqtisodiy faoliyatdagi roli, huquq tizimi mustahkamligi, pul-kredit siyosati barqarorligi, xalqaro savdo erkinligi va bozorlarni tartibga solish darajasi. Ushbu yondashuvga ko’ra, iqtisodiy erkinlik yuqori bo’lgan davlatlarda innovatsiya, investitsiya, bandlik va farovonlik ko’rsatkichlari ham yuqori bo’lishi kuzatiladi.

Mintaqaviy tadqiqotlar ichida O’zbekiston bo’yicha adabiyotlar keyingi yillarda boyib bormoqda. O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, “2022–2026 yillarga mo’ljallangan Taraqqiyot strategiyasi”, Prezident farmonlari va hukumat qarorlarida iqtisodiy erkinlikni kengaytirish, mulk huquqini mustahkamlash, tadbirkorlik uchun qulay muhit yaratish bo’yicha qator chora-tadbirlar belgilab berilgan. Mahalliy tadqiqotchilar – A. Razzoqov, T. Jalolov, D. Xodjayev va B. Jo’rayev iqtisodiy erkinlikning bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy o’sish, samaradorlik, raqobat va jamiyat farovonligidagi o’rni nazariy va amaliy jihatdan o’rgananganlar.

Asosiy natijalar. Tadqiqot davomida iqtisodiy erkinlik institutining nazariy asoslari, huquqiy poydevori va uning jamiyat taraqqiyotiga ko’rsatadigan real ta’siri chuqur tahlil qilindi. Olingan natijalar shuni ko’rsatadiki, iqtisodiy erkinlik – shaxsning davlat tomonidan ortiqcha yoki asossiz aralashuvlar bo’lmasdan, jamiyatning umumiy qoidalari va ijtimoiy mas’uliyat doirasida mustaqil iqtisodiy qarorlar qabul qilish huquqi – bozor iqtisodiyotining eng muhim poydevorlaridan biridir. Ushbu erkinlikning shakllanishi tarixiy, huquqiy, falsafiy va iqtisodiy omillar bilan chambarchas bog’liqdir.

Birinchidan, adabiyotlar sharhi shuni tasdiqladiki, iqtisodiy erkinlik tushunchasi qadimiy Sharq va G’arb falsafasida chuqur o’rganilgan. Abu Nasr Forobiy o’zining “Fozil odamlar shahri” asarida iqtisodiy faoliyatni axloqiy tamoyillar bilan bog’lagan holda, boylik inson kamoloti uchun vosita bo’lishi, adolatsiz yoki tartibsiz boylik to’plash jamiyat taraqqiyotiga putur yetkazishini alohida qayd etadi. Forobiyning iqtisodiy fikrlari shaxsiy erkinlik, ehtiyojlar iyerarxiyasi, axloqiy me’yorlar va jamiyat farovonligi kabi tushunchalarni uzviy bog’laydi. Demak, iqtisodiy erkinlik zamonaviy iqtisodiyotning emas, balki ko’p asrlik falsafiy an’ananing mahsulidir.

Ikkinchidan, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va amaldagi qonunlar iqtisodiy erkinlikni davlat siyosatining markaziy yo'nalishlaridan biri sifatida mustahkamlab qo'ygan. 41–42-moddalarda shaxsning mulkdor bo'lishi, munosib mehnat sharoitida ishlashi, kasb tanlash erkinligi va mehnatga adolatli haq olish huquqlari kafolatlangan. Ushbu normalar iqtisodiy erkinlikni nafaqat nazariy huquq, balki amaliy himoyalangan institut sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, fuqarolarning mulkka egalik qilish imkoniyatlari kengaygan sari ularning iqtisodiy tashabbuslari, investitsion faolligi va mehnat unumdorligi oshadi.

Uchinchidan, iqtisodiy erkinlik jamiyat taraqqiyotining ko'p qirrali mexanizmlarini ishga soladi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy erkinlik mavjud bo'lgan jamiyatlarda:

- tadbirkorlik tashabbuslari kuchayadi, yangi ish o'rinlari yaratiladi
- innovatsiyalar tezroq paydo bo'ladi, ilmiy–texnik taraqqiyot jadallashadi
- bozor iqtisodiyotida sifat va samaradorlik oshadi, raqobat tabiiy tarzda kuchayadi
- korrupsiya va byurokratik to'siqlar kamayadi, boshqaruv samaradorligi ortadi
- shaxsiy mas'uliyat va iqtisodiy ong shakllanadi
- ijtimoiy harakatchanlik va o'rta qatlamning mustahkamlanishi tezlashadi

Bu jarayonlar jamiyatning umumiy iqtisodiy barqarorligi va farovonligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Xalqaro tajribalar shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy erkinlik yuqori bo'lgan davlatlarda yalpi ichki mahsulot, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar va mehnat unumdorligi ham yuqori bo'ladi.

To'rtinchidan, iqtisodiy erkinlikning mutlaq cheksiz bo'lishi ham salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkinligi aniqlandi. Shu sababli davlatning oqilona tartibga solish mexanizmlari – monopoliyaga qarshi siyosat, mehnat qonunchiligi, ekologik himoya, iste'molchilar huquqlarini ta'minlash va adolatli raqobat muhitini yaratish – iqtisodiy erkinlikni muvozanatlashtiruvchi hal qiluvchi omildir. Bu davlatning iqtisodiyotni to'liq boshqarishi emas, balki erkinlikni barqaror rivojlanish bilan uyg'unlashtirishga qaratilgan mexanizmdir.

Beshinchidan, O'zbekistonning so'nggi yillardagi iqtisodiy islohotlari iqtisodiy erkinlikni kengaytirish yo'lida ijobiy o'zgarishlarni ko'rsatdi. Fraser Institute reytingida mamlakatning 2017–2023-yillardagi o'rnini sezilarli yaxshilangan bo'lib, bu soliq tizimi liberallashtirilganligi, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash siyosati, valyuta bozorining erkinlashtirilishi va sud-huquq tizimining modernizatsiya qilinishi bilan bog'liq. Ushbu natija O'zbekistonning global iqtisodiy tizimga integratsiyalashuvida muhim omil bo'lmoqda.

Tadqiqotning yana bir muhim xulosasi shundan iboratki, iqtisodiy erkinlikning kengayishi nafaqat iqtisodiy o'sish, balki demokratiya, fuqarolik jamiyati, ochiqlik va shaffoflikning

rivojlanishiga ham xizmat qiladi. Shaxslar iqtisodiy jihatdan erkinlashganda, ular ijtimoiy jarayonlarda faolroq qatnashadi, davlat boshqaruvi ustidan jamoatchilik nazorati kuchayadi va jamiyatning institutsional barqarorligi mustahkamlanadi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, fuqaroning iqtisodiy erkinligi zamonaviy jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun hal qiluvchi omildir. Iqtisodiy erkinlik – shaxsning mulkka egalik qilish, mehnat bilan shug'ullanish, tadbirkorlik tashabbuslarini amalga oshirish va bozor munosabatlarida mustaqil qaror qabul qilish huquqlarini o'z ichiga olgan keng ko'lamli tushunchadir. Ushbu erkinlikning mavjudligi nafaqat iqtisodiy o'sish, balki ijtimoiy adolat, demokratik qadriyatlar va shaxsiy farovonlikning mustahkamlanishiga ham asos yaratadi.

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar – mulk huquqining himoyasi, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, raqobatni kuchaytirish, bozor mexanizmlarini liberallashtirish va davlat aralashuvini optimallashtirish – iqtisodiy erkinlikni kengaytirishga qaratilgan samarali choralar sifatida namoyon bo'lmoqda. Xalqaro reytinglarda mamlakatning o'rni yaxshilanayotgani ham islohotlarning amaliy natijasini tasdiqlaydi.

Iqtisodiy erkinlikning kengayishi quyidagi ijobiy jarayonlarni yuzaga keltirishi ilmiy manbalarda ham isbotlangan: innovatsion faollikning ortishi, tadbirkorlikning rivojlanishi, raqobatning kuchayishi, investitsiyalar jalb etilishi, mehnat unumdorligining oshishi va umumiy iqtisodiy samaradorlikning yaxshilanishi. Bu esa, o'z navbatida, jamiyatning farovonligi oshishiga, ijtimoiy tabaqalanishning yumshashiga va demokratik institutlarning rivojlanishiga imkon yaratadi.

Shu bilan birga, iqtisodiy erkinlikning mutlaq chegarasizligi ham ijobiy natija bermasligi sababli, davlat tomonidan oqilona, adolatli va zarur tartibga solish siyosati dolzarbdir. Monopoliyaga qarshi kurash, mehnat huquqlarini himoya qilish, iste'molchilar manfaatlarini qo'llab-quvvatlash va ekologik xavfsizlikni ta'minlash kabi yo'nalishlarda davlatning ishtiroki iqtisodiy erkinlikning barqarorligini mustahkamlaydi.

Fuqaroning iqtisodiy erkinligini kengaytirish – kuchli iqtisodiyot, adolatli jamiyat va samarali huquqiy davlat qurishning asosiy sharti hisoblanadi. O'zbekistonning hozirgi islohotlar jarayoni ushbu tamoyilga mos ravishda davom etayotgan bo'lib, iqtisodiy erkinlikning qo'llab-quvvatlanishi va kengaytirilishi mamlakatning uzoq muddatli taraqqiyoti uchun muhim strategik omil bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Xalq merosi nashriyoti, 1993. – 240 b.

2. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – URL: <https://lex.uz/docs/-6445145> (murojaat sanasi: 10.12.2025).
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. “2022–2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”, 28.01.2022 y., PF–60. – URL: <https://lex.uz/docs/-5841063> (murojaat sanasi: 10.12.2025).
4. Fraser Institute. Economic Freedom of the World: 2023 Annual Report. – Vancouver: Fraser Institute, 2023. – URL: <https://www.fraserinstitute.org/economic-freedom> (murojaat sanasi: 10.12.2025).
5. Razzoqov A. Iqtisodiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2020. – 512 b.
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining rasmiy portali. – URL: <https://pm.gov.uz> (murojaat sanasi: 10.12.2025).